

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4  
**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduxamidov Islombek*

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI .....	10-18
--	-------

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ .....	19-24
---	-------

*Индиаминова Шоира Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ .....	25-29
--	-------

*Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH .....	30-35
--	-------

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) .....	36-41
---	-------

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI .....	42-46
---	-------

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ .....	47-54
---	-------

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH .....	55-61
--	-------

*Mamadaliyev Ulug'bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI .....	62-69
---	-------

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH .....	70-75
--	-------

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI .....	76-82
---	-------

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI .....	83-87
---	-------

*Norkulov Ubaydulla Umarovich*

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI ..... 88-92

*Пулатов Шердор Нематёнович*

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАБАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ ..... 93-105

*Yusupov Murodali Sunnatovich*

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI ..... 106-110

*Suleymanov Sarvar Sunatullayevich*

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI ..... 111-116

*Shernazarov Ravshan Avazovich*

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI ..... 117-122

*Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich*

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI ..... 123-126

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Matkarimova Salomat Ko'ziyevna*

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK ..... 127-133

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI ..... 134-139

*Rahimova Maftuna*

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA ..... 140-143

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIV BORILGAN

TADQIQOTLAR ..... 144-147

*Xursanov Nurisлом Iskandarovich*

O'ZBEK FRAZEOLIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI ..... 148-154

*Umarov Umidjon Akram o'g'li*

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI ..... 155-159

*Облокулова Шахло Асрор қизи*

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ ..... 160-164

*Nazarova Lola Maqsadilla qizi*

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 165-170

*Umarxonova Dilafruz Murotjonovna*

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ..... 171-175

*Yunusova Ganjina Rustamovna*

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

*Мусаев Файзулло Оманович*

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ ..... 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	



RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
---	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
--	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	376-381
--	---------

**Received:** 30 June 2024

**Accepted:** 5 July 2024

**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## LINGUISTIC SIGN AND ASSOCIATION

**Rakhimova Maftuna,**

Kokand SPI, doctor of philosophy in philology, associate professor

**Abstract.** This article describes the psychological and linguistic interpretation of the association phenomenon, which describes the formation of word associations in human memory and the types of examples based on examples.

**Key words:** association, memory, verbal, similarity, contradiction, word.

## LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA

**Rahimova Maftuna,**

Qo'qon DPI, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada assotsiatsiya hodisasining psixologik va lingvistik talqini yoritilgan bo'lib, verbal assotsiatsiyalarning inson xotirasida shakllanishi va ularning turlari misollar asosida tavsiflab berilgan.

**Kalit so'zlar:** assotsiatsiya, xotira, verbal, o'xshashlik, qarama-qarshilik, so'z.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N21>

**Kirish.** Ongli mavjudot o'zaro va tabiat bilan belgilar orqali munosabatda bo'ladi. Muayyan predmet boshqa bir predmet haqida xabar berish maqomiga ega bo'lganida belgi hisoblanadi. Predmetning belgiligi shartli refleks va assotsiatsiya hodisalariga asoslanadi. Assotsiatsiya hodisasi xotiraning esga tushirish bilan bog'liq jarayondir. Psixologik adabiyotlarda esga tushurish va uning turlari qatorida assotsiatsiya hodisa alohida ta'kidlanadi. Chunki assotsiatsiya hodisasi psixologiyada muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo'ladigan aloqa sifatida e'tirof etiladi. Ma'lumki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarimsharlari qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo ro'y bermas edi. Modomiki, shunday ekan, mazkur obrazlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib, asta-sekin mustahkamlanib, miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi, shu bilan birga, hayot va faoliyatning muayyan talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi, avvalgi holatini takroran namoyon qiladi [4:230].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Jahonning mashhur psixolingvistlari: F. Gal'ton, A.Tumb, K.Marb, G.Kent, A.Rozanov, D.S.Palermo, M.Rozentsveyg, R.Vudvorts, L.Postmen, K.Nobl, J.Diz, J.Jenkins, F.Kreymer, A.R.Luriya, A.A.Leontev, L.V.Saxarniy, A.A.Zalevskaya, Yu.N.Karaulovlarning bu yo'nalishdagi ishlarida tilga assotsiativ yondashuvning mohiyati, zarurati, assotsiativ munosabat, assotsiativ ma'no, verbal assotsiatsiya, assotsiativ maydon,

matnning assotsiativ maydoni, lisoniy ong, lisoniy xotira, inson leksikoni tushunchalari, assotsiativ tajriba metodi, assotsiativ lug'atlarning tuzilishi, ahamiyati kabi masalalar bo'yicha qimmatli ilmiy qarashlar bayon etilgan[2:16]. O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, H.Rahmonovlarning tadqiqotlarida mazkur hodisaga o'ziga xos tarzda yondashilganini alohida e'tirof etish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Assotsiatsiya inson ongidagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog'lanishi, shu bog'lanishlar tufayli ongda paydo bo'lgan muayyan tasavvurlar o'xshashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilariga ko'ra shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi. Assotsiatsiya o'tmish tajribasi asosida paydo bo'lib, narsa va voqealarning obyektiv aloqalarini aks ettiradi. Bir ruhiy jarayonning namoyon bo'lishi assotsiatsiya tufayli ikkinchi (avvalgisi bilan bog'liq bo'lgan) ruhiy jarayonni vujudga keltiradi. Assotsiatsiyalarning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlaridir. Ushbu hodisaning lisoniy belgilar orqali namoyon bo'lishini analiz, sintez, qiyoslash va tavsiflash metodlari orqali tahlil qilish samarali natijalarni beradi.

**Tahlil va natijalar.** Psixologik hodisa sifatida talqin etiladigan assotsiatsiyalar noverbal va verbal usullarda namoyon boladi. Shaxs, predmet, vodea-hodisalar orqali namoyon boladigan assotsiatsilar kabi soz yordamida ro'y beradigan verbal assotsiatsiyalar ham mavjudki, ular inson xotirasining faollashishida muhim rol oynaydi.

Tilshunoslikda assotsiativ munosabat sintagmatik munosabatga zid qo'yiladigan munosabat turi sifatida qaraladi. Til birligi, xususan, so'zning sintagmatik munosabati uning kommunikatsiya, xabar berish jarayoni (nutq, matn)dagi holati bilan bog'liq. Bu holatda u (so'z) gap bo'lagi vazifasini bajarib, sintagmatik (sintaktik) maqomga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, so'zning sintagmatik munosabati uning gapda sintaktik funksiya (ega, aniqllovchi, to'ldiruvchi kabi) bajarib, boshqa bir so'z bilan bog'lanib turgan holati (maqomi)dir. Sintaktik munosabatga zid qo'yiladigan assotsiativ (paradigmatik) munosabat esa so'zning gap (jumla) tuzilgunga qadar xotiradagi muayyan guruhda o'ziga o'xshash so'zlar bilan aloqada (ular bilan bog'lanib) turgan holatidir. Masalan, do'st so'zi, *Men do'stimni hurmat qilaman* gapida sintagmatik munosabatda (do'stimni+hurmat qilaman) turibdi. Bu gap qurilgunga qadar do'st so'zi xotirada oshna, jo'ra, og'ayni so'zlari bilan bir "uya"da bo'lib, ular bilan o'xshashlik asosidagi bog'lanishda yoki assotsiativ munosabatda bo'ladi. Demak, sintagmatik munosabat til birliklarining chiziqsimon (ketma-ket) bog'lanishini, assotsiativ munosabat esa xotiradagi bir guruh so'zlar ichidagi bog'lanishlardan hosil bo'ladi.

Assotsiatsiya hodisasi, aslida, psixologik hodisa bo'lib, u ong (psixika) dagi sezgi (xususiyat sezgisi), obraz, tushuncha, tasavvur, g'oya kabilarning o'zaro bog'lanishini anglatadi[ 143-146]. Shunday ekan, assotsiatsiya ongning shakllanish va faoliyat ko'rsatish asosidir. Zero, ongli (aqliy) faoliyat deyilganda, biror narsani boshqa narsa yordamida sezish, anglash, shu narsa haqida xabar berish yoki ma'lumot olish jarayonlari tushuniladi.

Asosan, uch xil assotsiatsiya e'tirof etiladi [1:144-146]: qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlarga ega bo'lgan narsa va hodisalarning birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish munosabati bilan boshqalar obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongda gavdalanishidan iborat qonuniyat. Masalan, "katta" so'zi idrok qilinsa, beixtiyor "kichik" eslanadi. Leksik antonimlikning muhim belgisi sifatida ulardan birining aytilishi bilan ikkinchisining xotiraga kelishi ham tushuniladi. Xususan, yaxshi deyishimiz bilan yomon so'zi

esimizga keladi, shu asosda bu soʻzlar bi-birini eslatib turadi. Demak, oʻz-oʻzidan tushuniladiki, antonim soʻzlar orasida nooʻxshashlikka, farqlilikka, zidlikka asoslangan assotsiativ munosabat mavjud. Assotsiativ munosabat antonim soʻzlardan birining ikkinchisiga nisbatan belgi boʻlishini, u haqida xabar berishini taʼminlaydi.

Yondoshlik assotsiatsiyasi – avval bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilingan narsa va hodisalarning birontasini qayta idrok qilish yoki tasavvur munosabati bilan ixtiyorsiz ravishda ongda boshqalarining ham obrazlari gavdalanishidan iborat qonuniyat. Masalan, "ona" soʻzi idrok yoki tasavvur qilinsa, bola, alla, mehr ham esga tushadi.

Oʻxshashlik assotsiatsiyasi – bir-biriga oʻxshash belgilarga ega boʻlgan narsa va hodisalarning birortasini idrok yoki tasavvur qilish munosabati bilan ongda boshqalarining ham obrazlari ixtiyorsiz ravishda tiklanishidan iborat qonuniyat. Masalan, sinonim soʻzlarning eng muhim belgisi ularning bir umumiy, oʻxshash maʼnoga ega boʻlishi va shu asosda ularning maʼnodoshlik qatorini tashkil etishidir. Bu qatorlar ikki va undan ortiq soʻzlardan iborat boʻladi. Boshqacha aytganda, maʼno jihatdan oʻxshashlik ularni birlashtiradi, umumiy munosabatga kiritadi. Ikkinchi tomondan, har bir soʻzning sinonim qatorda oʻz oʻrni boʻladi. Ushbu oʻrin har bir sinonim soʻzning oʻziga xos qoʻshimcha maʼnolari asosida belgilanadi. Sinonimik qatorning bosh (dominanta) soʻzi esa qoʻshimcha belgilarga ega boʻlmaydi. Bosh soʻzning maʼnosi, aslida, sinonimik qatordagi har bir soʻz semantikasining asosini tashkil etadi va shu asosda soʻzlarni sinonimik munosabatga (qatorga) kiritib turadi. Sinonimik qatorga belgi nazariyasi boʻyicha qaralganda, undagi har bir soʻzning boshqasiga nisbatan belgi boʻla olish imkoniyatini koʻrish mumkin. Buning asosi sinonim soʻzlarning oʻzaro oʻxshashlik (aynanlik) assotsiatsiyasi boʻyicha xotiraviy bogʻlanishga egaligidir. Zero, biz bir sinonim soʻzni eslar (aytar) ekanmiz, shu zahoti u bilan bir umumiy maʼnoga ega boʻlgan ikkinchi soʻz yodimizga keladi. Xususan, biz "ashula" soʻzini aytsak, "qoʻshiq" soʻzi esimizga tushadi. Bunda "ashula" soʻzi "qoʻshiq" soʻzining belgisi hisoblanadi. Aksincha, "qoʻshiq" soʻzi aytilganda, "ashula" soʻziga ishora boʻladi. Bu soʻzlarning bir-biriga assotsiatsiya vazifasini bajara olishlariga sabab har ikkisining bir umumiy leksik, yaʼni "kuy bilan ijro qilinadigan sheʼr" maʼnosiga egaligidir [3:99].

Assotsiatsiya hodisasini qism-butun munosabatidagi soʻzlarda ham koʻrish mumkin. Chunki qismni anglatuvchi soʻz aytilishi bilan butunni anglatuvchi soʻzlar esga tushadi yoki butunni anglatuvchi soʻzlarning aytilishi qismni anglatuvchi soʻzlarni eslatadi. Obyektiv olamdagi narsa, hodisalar tarkibiy boʻlinuvchanlikka (diskretlikka) ega. Buning sababi u nimalardandir tashkil topgan, shu tashkil etuvchilarning butunligidan (sintezidan) iborat. Ana shu obyektiv olam predmetlarini (denotatlari, referentlarini) tashkil etuvchi qism va ularning butun holatlari, munosabatlari tilda aks etadi va butun-qism semantik munosabatini shakllantiradi. Bu munosabat leksik, sintaktik vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Butun-qism munosabatining soʻz orqali ifodalanishi leksik-semantik munosabatni tashkil etadi. Masalan, daraxt soʻzining maʼnosi uning qismlari boʻlgan ildiz, tana, shox, yaproq, gul kabi qismlardan iborat boʻlib, ularni ifodalovchi maʼnolar daraxt soʻzi semantikasi bilan bogʻliq. Ana shu semantik bogʻliqlik ulardan birining ikkinchisi uchun belgi boʻlib kelishiga asos boʻladi. Agar biz tana desak, u, bir tomondan, ildizni, ikkinchi tomondan, shoxni esga tushiradi, ular haqida xabar beradi. Bu oʻrinda ham ikki turdagi bogʻlanishni, belgilik imkoniyatlarni koʻrish mumkin: a) butun-qism munosabatida: daraxt→ildiz, ildiz→daraxt, daraxt→shox, shox→daraxt kabi; b) qism-qism munosabatida: ildiz→tana, tana→ildiz, shox→tana, tana→shox. Butun-qism va qism-

qism bog'lanishlari asosidagi assotsiatsiyalik imkoniyatlari (belgilanmishning esga tushirilish vaqti, aniqlik darajasi) har xildir.

**Xulosa.** O'z-o'zidan tushuniladiki, psixik birliklar (sezgi, obraz, tushuncha) va bular asosida shakllanuvchi tasavvur, hayol, g'oya kabilarning o'zaro bog'lanishi yoki assotsiatsiyasi psixologiyada o'rganiladi. Ma'lumki, tushuncha ruhiy-mantiqiy ( psixik-logik) hodisa bo'lib, u so'z bilan ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkin. Ana shu so'z bilan ifodalanuvchi tushunchalarning o'zaro bog'lanishi (assotsiatsiyasi) o'rganilayotganda so'z (til birligi) qatnashayotganligi uchun assotsiatsiya lingvistikaga ham aloqador bo'ladi. Shunday qilib, so'z (tovush+tushuncha) assotsiatsiyasi lingvistik va psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi va shuning uchun psixolingvistika tomonidan o'rganiladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: 2008
2. Лутфуллаева Д.Е Ассоциатив тилшунослик назарияси “Meriyus” Тошкент-2017.-Б.16.
3. Мартинович Г.А. Типы вербальных связей и отношений в ассоциативном поле // Вопросы психологии, 1990. № 2. – С. 143-146
4. Rahimova M. So'zning belgilik muammolari. Fil.fan.bo'yicha falsafa doktorligi diss. avtoreferati. – Farg'ona, 2019.
5. G'oziyev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).